

INFLATSIYA: O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLATSIYA DARAJASI HAMDA UNING O'RNI VA AHAMIYATI

Nabiyev Nasimbek Shuhratjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya fakulteti Moliya va moliyaviy

texnologiyalar yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +998911424576

Email: nasimbeknabiyev4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14217419>

Annotatsiya: ushbu maqolada inflatsiyaga oid ma'lumotlar va O'zbekistonda inflatsiya darajasi hamda mavzuga doir statistik ma'lumotlar haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: inflatsiya, YaIM deflatori, target, iste'mol narxlari indeksi, inflatsiya turlari, taklif inflatsiyasi, talab inflatsiyasi.

Abstract: In this article, information about inflation and the level of inflation in Uzbekistan, as well as statistical information on the subject, are highlighted.

Key words: inflation, GDP deflator, target, consumer price index, types of inflation, supply inflation, demand inflation.

Аннотация: в данной статье представлена информация об инфляции и уровне инфляции в Узбекистане, а также статистическая информация по теме.

Ключевые слова: инфляция, дефлятор ВВП, целевой показатель, индекс потребительских цен, виды инфляции, инфляция предложения, инфляция спроса.

Inflyatsiya – bu tovar va xizmatlar narxlarining oshishi, ya'ni pulning xarid qobiliyatining pasayishidir. Hozirgi kunda inflyatsiya iqtisodiy barqarorlik, aholi turmush darajasi va biznes muhitiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. O'rtacha inflyatsiya iqtisodiy o'sishga yordam bersa, uning haddan tashqari oshishi yoki pasayishi iqtisodiy tanglikka olib keladi.

Inflyatsiya darajasini boshqarish Markaziy banklarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu orqali iqtisodiy rivojlanish va pul-kredit siyosati muvozanati ta'minlanadi. Aholi uchun esa inflyatsiya turmush darajasi va xarid qobiliyatiga ta'sir qiladi, tadbirkorlar uchun moliyaviy rejalarni tuzishda ahamiyatlidir. Shu sababli inflyatsiya mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim strategik omil hisoblanadi.

"Inflatsiya" so'zi birinchi marta 1864-yilda amerikalik iqtisodchi A.Delmer tomonidan iqtisodiy oborotga kiritiladi, ya'ni, bunga AQSH Federal hukumati 1861-1865 yillarda mamlakat fuqarolar urushi davrida davlatning xarajatlarini qoplash maqsadida muomalaga juda katta miqdorda qog'oz pullarni ishlab chiqarishi sabab bo'ladi. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, inflatsiya bu pul muomalasi qonunlarning buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini bildiradi.

Inflatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo'rtish, taranglashish) - ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi hamda narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishidir. Shuningdek, bu orqali mamlakatning milliy valyutasining yoki pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.

Shu o'rinda, pulning qadrsizlanishi deganda, ma'lum bir narxdagi tovar va xizmatlarning miqdorini ma'lum bir vaqtdan so'ng o'sha narxda kamroq miqdorda sotib olish yoki xarid qilish tushiniladi.

Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflatsiya sudraluvchi inflatsiya, shiddatli inflatsiya hamda giperinflatsiyaga bo'linadi.

Sudraluvchi (mo'tadil) inflatsiya	Shiddatli (gollaping) inflatsiya	Giperinflatsiya
Uzoq vaqt davomida barqaror va past darajada bo'lgan inflyatsiya (zamonaviy iqtisodiyot uchun yiliga 1-4% normal hisoblanadi)	Inflyatsiyani yillik darajasi 10% dan oshib, har oyda o'sib boradi	Mamlakatda o'rtacha narx-navoning haddan tashqari oshgandagi holati bo'lib, oyiga 50%, yiliga esa 50 baravardan ham ko'proq oshishi mumkin

Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon.

Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo'q bo'lishi esa iqtisodiyotning o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra turlari:

Talab inflatsiyasi	Taklif inflatsiyasi
Inflyatsiyaning bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada, tovar va xizmatlar narxlari o'sadi.	Inflyatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada, ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi

Baholar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi inflatsiya darajasi (baholarning o'sish sur'ati) deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\pi = \frac{P - P_{-1}}{P_{-1}} \times 100\%$$

Bu yerda: π – yillik inflatsiya sur'ati; P – joriy yilning narxlar indeksi; P_{-1} – o'tkan yilning narxlar indeksi.

Iste'mol narxlari indeksi – uy-xo'jaliklari talabidan kelib chiqib, ma'lum bir tovar va xizmatlar umumiy narxlarining o'rtacha o'zgarish darajasini aks ettiradi. Ushbu umumiy

ko'rsatkich iste'mol savatidagi har bir tovar va xizmat uchun narxlarning o'zgarishini inobatga olgan holda hisoblanadi. Iste'mol narxlari indeksi orqali inflyatsiya darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$N - \text{yildagi inflatsiya darajasi} = \frac{N - \text{yildagi INI} - (N-1) - \text{yildagi INI}}{(N-1) - \text{yildagi INI}} \times 100\%$$

Inflyatsiya darajasini aniqlashda deflyator ko'rsatkichidan ham foydalanish mumkin.

YaIM deflyatori – mamlakat miqyosida barcha ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar o'rtacha narxining bazis davriga nisbatan o'zgarish dinamikasini ifodalovchi indeksdir. Deflyator ko'rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$N - \text{yildagi inflatsiya darajasi} = \frac{N - \text{yildagi deflyator} - N - 1 - \text{yildagi deflyator}}{N - 1 - \text{yildagi deflyator}} \times 100\%$$

Oddiy uy xo'jaligi iqtisodiyotda ishlab chiqariladigan barcha tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilmaydi. Shuning uchun YaIM deflyatori uy xo'jaliklari inflyatsiyasini o'lchash uchun mos ko'rsatkich hisoblanmaydi.

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda. **“Target”** so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, **“maqsad”** degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi.


Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi.

O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin.

Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

2019-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida”gi PF-5877-sonli farmonida O'zbekiston Markaziy banki 2020-yil 1-yanvardan bosqichmabosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tishi belgilangan edi. Ushbu farmonda inflyatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizgacha, 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'rnatish rejalashtirilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 2023-yilda inflyatsiya darajasi 8,77 foizni tashkil etgan. Bu 2016-yildan buyon eng past ko'rsatkichdir. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan “Pul-kredit siyosatining 2023-yil va 2024-2025-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari” nomli qo'llanmasida mamlakatimizda joriy inflyatsiyaning erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichi 5 foiz etib belgilangan. Iqtisodiyotda va tashqi vaziyatda yuzaga kelgan tendensiyalar maqsadli ko'rsatkichga erishish davri 2024-yilning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda viloyatlar bo'yicha inflatsiya darajasi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inflyatsiyaga qarshi kurashish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim qismidir. Bunga erishish uchun bir nechta asosiy yechimlar mavjud. Birinchidan, pul-kredit siyosatini qat'iy lashtirib, iqtisodiyotdagi ortiqcha pul massasini cheklash lozim. Ikkinchidan, davlat byudjeti va xarajatlarini optimallashtirish orqali talabni muvozanatlash kerak. Uchinchidan, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va importga qaramlikni kamaytirish orqali mahsulot taklifini oshirish muhimdir. Shuningdek, raqobatni kuchaytirish va narxlar barqarorligini ta'minlash uchun tizimli islohotlar o'tkazilishi zarur. Inflyatsiyaga qarshi choralar ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi lozim.

References:

1. A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev, -T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.- 153-bet.
2. E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabborov; -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 38-bet.
3. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation/>
4. [https://C:/users/user/Downloads/Yosh+olimlar+0919%20\(1\).pdf](https://C:/users/user/Downloads/Yosh+olimlar+0919%20(1).pdf)
5. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/inflation-targeting>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.

INNOVATIVE
ACADEMY